



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar- dekabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(71) 202-80-44(45)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar- dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 65,9 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,4 mlrd AQSH dollariga yoki 3,8 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar - dekabr, mln AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **65 934,0** (+3,8 %)

(2023- y.: **63 528,6**)



Saldo

2024- y.: **-12 037,6** (2023- y.: **-13 789,6**)



Eksport

2024- y.: **26 948,2** (+8,4 %)

(2023- y.: **24 869,5**)

TSA'dagi ulushi

59,1 %

40,9 %




Import

2024- y.: **38 985,8** (+0,8%)

(2023- y.: **38 659,1**)

QIT'ALAR KESIMIDA TSA


(2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



<p><u>Yevropa</u> Eksport – 14 075,4 Import – 13 831,5 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 42,3 %</p>	<p><u>Osiyo</u> Eksport – 8 528,3 Import – 21 843,3 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 46,1 %</p>	<p><u>Afrika</u> Eksport – 53,0 Import – 44,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,1 %</p>
<p><u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 393,6 Import – 744,4 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 1,7 %</p>	<p><u>Janubiy Amerika</u> Eksport – 21,6 Import – 499,4 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,8 %</p>	<p><u>Avstraliya</u> Eksport – 0,9 Import – 3,6 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,01 %</p>

AYRIM ITTIFOQ VA IQTISODIY TASHKILOTLAR BILAN TSA

(yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



TSAda eksport hajmi 26 948,2 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 38 985,8 mln AQSH dollariga (0,8 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 12 037,6 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.













O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar- dekabr, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning 198 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,9%), Rossiyada (17,6%), Qozog'istonda (6,5%), Turkiyada (4,5%) va Koreya Respublikasida (3,0%) qayd etilgan.

<p>XXR</p> <p>TSA – 12 486,7</p> <p>Eksport: 2 054,9 Import: 10 431,8</p>  18,9 %	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 11 630,3</p> <p>Eksport: 3 682,9 Import: 7 947,3</p>  17,6 %	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 4 277,8</p> <p>Eksport: 1 452,3 Import: 2 825,5</p>  6,5 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 2 937,3</p> <p>Eksport: 1 169,3 Import: 1 768,0</p>  4,5 %	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 2 000,6</p> <p>Eksport: 39,9 Import: 1 960,8</p>  3,0 %
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 1 213,9</p> <p>Eksport: 97,5 Import: 1 116,5</p>  1,8 %	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 1 148,2</p> <p>Eksport: 128,2 Import: 1 020,0</p>  1,7 %	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 1 134,3</p> <p>Eksport: 1 089,3 Import: 44,9</p>  1,7 %	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 1 131,3</p> <p>Eksport: 795,1 Import: 336,2</p>  1,7 %	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 980,4</p> <p>Eksport: 126,8 Import: 853,6</p>  1,5 %



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar- dekabr, mln AQSH dollari)



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	9 059,7	13 825,7	12 486,7
<i>Eksport</i>	2 632,0	2 486,6	2 054,9
<i>Import</i>	6 427,7	11 339,1	10 431,8



Rossiya	9 381,8	10 156,3	11 630,3
<i>Eksport</i>	3 151,1	3 495,7	3 682,9
<i>Import</i>	6 230,7	6 660,6	7 947,3



Qozog'iston	4 651,1	4 485,6	4 277,8
<i>Eksport</i>	1 407,5	1 417,1	1 452,3
<i>Import</i>	3 243,5	3 068,5	2 825,5



Turkiya	3 382,0	3 161,1	2 937,3
<i>Eksport</i>	1 643,5	1 263,3	1 169,3
<i>Import</i>	1 738,5	1 897,7	1 768,0



Koreya Respublikasi	2 342,5	2 368,0	2 000,6
<i>Eksport</i>	42,8	54,5	39,9
<i>Import</i>	2 299,8	2 313,5	1 960,8



Germaniya	1 170,2	1 072,3	1 213,9
<i>Eksport</i>	99,0	86,8	97,5
<i>Import</i>	1 071,3	985,5	1 116,5



Turkmaniston	928,6	1 095,9	1 148,2
<i>Eksport</i>	197,0	171,6	128,2
<i>Import</i>	731,6	924,2	1 020,0













Afg'oniston	765,6	867,5	1 134,3
<i>Eksport</i>	756,3	857,2	1 089,3
<i>Import</i>	9,3	10,3	44,9



Fransiya	344,3	995,4	1 131,3
<i>Eksport</i>	72,6	400,4	795,1
<i>Import</i>	271,7	595,0	336,2




Hindiston	691,6	761,0	980,4
<i>Eksport</i>	36,5	111,9	126,8
<i>Import</i>	655,1	649,1	853,6

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
AQSH	493,2	765,1	881,7
 <i>Eksport</i>	124,5	253,1	317,4
<i>Import</i>	368,7	512,0	564,3
Qirg'iz Respublikasi	1 263,3	968,3	846,4
 <i>Eksport</i>	982,5	634,4	513,3
<i>Import</i>	280,7	333,8	333,1
Belarus	540,4	654,7	714,0
 <i>Eksport</i>	128,8	128,9	163,3
<i>Import</i>	411,6	525,8	550,8
Tojikiston	676,7	760,9	702,7
 <i>Eksport</i>	522,1	608,3	552,2
<i>Import</i>	154,5	152,6	150,5
BAA	518,6	721,5	649,7
 <i>Eksport</i>	122,9	298,4	249,6
<i>Import</i>	395,6	423,2	400,1
Litva	494,7	626,4	599,0
 <i>Eksport</i>	94,2	144,5	168,8
<i>Import</i>	400,5	481,9	430,3
Eron	435,9	503,6	496,6
 <i>Eksport</i>	139,8	180,8	163,6
<i>Import</i>	296,1	322,8	333,1
Braziliya	554,6	656,7	439,2
 <i>Eksport</i>	1,2	4,4	13,1
<i>Import</i>	553,4	652,3	426,2
Italiya	385,4	514,4	438,0
 <i>Eksport</i>	55,6	85,5	44,6
<i>Import</i>	329,8	429,0	393,4
Chexiya	187,5	351,0	434,7
 <i>Eksport</i>	32,0	53,3	54,5
<i>Import</i>	155,5	297,7	380,2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI*

(2024- yil yanvar- dekabr, mln AQSH doll.)




Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 38,4 % ulush bilan 25 337,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,6 % ulush bilan 416,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar- dekabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-dekabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga ko'paydi.

O'zbekiston bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan respublika eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 64,9 % ni tashkil etdi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 23 121,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 9 064,2 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 14 056,9 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

Rossiya – 50,3



Qozog'iston – 18,5



Turkmaniston – 5,0



Qirg'iz Respublikasi – 3,7



Belarus – 3,1



Tojikiston – 3,0



Ozarbayjon – 1,1



Ukraina – 0,9



Armaniston – 0,1




Moldova – 0,1



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (50,3%), Qozog'iston (18,5%) hamda Turkmaniston (5,0%) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGA A‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar- dekabr, mln AQSH dollari)



O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 17 497,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 5 833,2 mln AQSH dollari, import hajmi esa 11 664,2 mln AQSH dollariga yetdi.


Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7756 taga yetdi va ular tomonidan 19467,6 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 16,5% ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	24 869,5	26 948,2	126,0	108,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 777,6	2 175,2	109,0	122,4	7,1	8,1
Ichimliklar va tamaki	123,0	138,5	110,7	112,6	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	321,4	320,6	81,7	99,8	1,3	1,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	940,6	1 315,0	77,4	139,8	3,8	4,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	14,2	43,5	66,9	306,9	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 307,4	1 687,3	100,0	129,1	5,3	6,3
Sanoat tovarlari	4 051,5	4 200,7	92,4	103,7	16,3	15,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1 305,2	1 202,2	134,0	92,1	5,2	4,5
Turli xil tayyor buyumlar	1 195,6	1 105,7	108,1	92,5	4,8	4,1
Boshqa tovarlar	8 192,6	7 555,1	198,3	92,2	32,9	28,0
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>8 153,8</i>	<i>7 480,6</i>	<i>198,4</i>	<i>91,7</i>	<i>32,8</i>	<i>27,8</i>
Xizmatlar	5 640,4	7 204,4	126,6	127,7	22,7	26,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,3% ni tashkil etib, ular boshqa tovarlar (28,0%), sanoat tovarlari (15,6%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,1%) va kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,3%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA EKSPORTI
TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr)

 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 175,1	122,4
Sabzavotlar va mevalar	1 584,0	132,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	397,9	83,1
Go'sht va go'sht mahsulotlari	53,1	15,6 b.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	51,0	3,5 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,1	94,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	25,8	93,1
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	16,9	108,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	10,3	134,0
Tirik hayvonlar	7,9	155,1
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	2,2	124,2
Ichimliklar va tamaki	138,5	112,6
Tamaki va tamaki mahsulotlari	84,6	134,5
Ichimliklar	53,9	89,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	320,6	99,8
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	117,8	93,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	72,2	124,9
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	38,8	140,6
Qog'oz massasi va makulatura	32,7	77,6
Metall rudalari va metall parchalari	29,5	60,9
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	25,2	163,1
Tabiiy kauchuk	2,3	252,9
Probka va yog'och-taxtalar	2,1	74,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 315,0	139,8
Tabiiy yoki sun'iy gaz	627,6	118,4
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	567,9	170,5
Elektr toki	115,9	151,3
Ko'mir, koks va briketlar	3,7	3,7 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	43,4	3,1 b.
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	43,3	3,1 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	0,1	75,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 687,3	129,1
Noorganik kimyo moddalari	910,7	183,0
O'g'itlar	357,4	106,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	235,6	91,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	56,6	55,7
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	35,6	93,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	31,8	189,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	24,7	112,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	19,7	86,6
Organik kimyo moddalari	15,2	104,3


XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	4 200,7	103,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 992,1	96,7
Rangli metallar	1 491,7	107,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	240,0	152,5
Cho'yan va po'lat	175,0	94,2
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	160,2	123,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	50,6	78,8
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	42,6	103,2
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	25,4	185,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	23,0	174,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 202,2	92,1
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	414,5	84,0
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	309,8	84,6
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	231,0	131,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar va ularning elektr qismlari	211,1	92,7
Boshqa transport uskunolari	131,5	131,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	78,7	101,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	71,9	87,4
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	52,4	44,4
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	8,3	31,3
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,8	74,3
Turli xil tayyor buyumlar	1 105,7	92,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	853,9	85,7
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	171,2	149,7
Poyabzal	21,2	64,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	20,6	145,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	19,4	128,2
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	11,1	92,9
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	7,4	83,9
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	1,0	47,3
Boshqa tovarlar	7 555,1	92,2
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	7 480,6	91,7

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollar)



2024-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 40,1 % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘sish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	3 495,7	3 682,9	110,9	105,4	1	1
XXR	2 486,6	2 054,9	94,5	82,6	2	2
Qozog‘iston	1 417,1	1 452,3	100,7	102,5	3	3
Turkiya	1 263,3	1 169,3	76,9	92,6	4	4
Afg‘oniston	857,2	1 089,3	113,3	127,1	5	5
Fransiya	400,4	795,1	5,5 b.	198,6	8	6
Tojikiston	608,3	552,2	116,5	90,8	7	7
Qirg‘iz Respublikasi	634,4	513,3	64,6	80,9	6	8
AQSH	253,1	317,4	2,0 b.	125,4	11	9
Pokiston	269,3	299,5	145,4	111,2	10	10
BAA	298,4	249,6	2,4 b.	83,7	9	11
Ozarbajjon	133,4	208,1	99,7	156,0	16	12
Litva	144,5	168,8	153,4	116,8	15	13
Eron	180,8	163,6	129,3	90,5	13	14
Belarus	128,9	163,3	100,1	126,7	17	15
Gankong	15,7	162,7	2,1 b.	10,4 b.	43	16
Buyuk Biritaniya	182,0	142,9	159,3	78,5	12	17
Turkmaniston	171,6	128,2	87,1	74,7	14	18
Hindiston	111,9	126,8	3,1 b.	113,3	18	19
Latviya	110,3	115,8	103,8	105,0	19	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-dekabr

2023-yil yanvar-dekabr

Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 20,5 % bilan 5 527,3 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati 0,8 % bilan 208,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida 2 036,2 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,8 % yoki 278,5 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 549,5 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (42,1 %), Qozog'iston (12,7 %), Pokiston (12,6) hamda Afg'oniston (8,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>186,2 mln AQSH dollari</p> <p>219,2 ming tonna</p> <p>2,2 b. ↑</p>	<p>Karam</p> <p>49,8 mln AQSH dollari</p> <p>176,2 ming tonna</p> <p>68,8 % ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>76,3 mln AQSH dollari</p> <p>354,8 ming tonna</p> <p>19,2 % ↑</p>	<p>Gilos</p> <p>70,3 mln AQSH dollari</p> <p>32,2 ming tonna</p> <p>33,0 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>79,5 mln AQSH dollari</p> <p>53,5 ming tonna</p> <p>15,8 % ↑</p>	<p>O'rik</p> <p>62,2 mln AQSH dollari</p> <p>64,8 ming tonna</p> <p>53,0 % ↑</p>	<p>No'xat</p> <p>5,9 mln AQSH dollari</p> <p>18,1 ming tonna</p> <p>13,1 b. ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>39,0 mln AQSH dollari</p> <p>27,7 ming tonna</p> <p>- 13,4 % ↓</p>
<p>Olxo'ri</p> <p>26,5 mln AQSH dollari</p> <p>33,0 ming tonna</p> <p>18,5 % ↑</p>	<p>Shaftoli</p> <p>96,9 mln AQSH dollari</p> <p>103,5 ming tonna</p> <p>44,2 % ↑</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>22,3 mln AQSH dollari</p> <p>14,5 ming tonna</p> <p>64,4 % ↑</p>	<p>Sabizi</p> <p>31,7 mln AQSH dollari</p> <p>134,4 ming tonna</p> <p>81,1 % ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Ming tonna	MIn AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	815,1	632,9	40,0
 Qozog'iston	520,5	189,8	25,6
 Qirg'iz Respublikasi	151,7	57,9	7,4
 XXR	144,6	128,6	7,1
 Pokiston	124,7	192,3	6,1
 Afg'oniston	67,6	124,4	3,3
 Iroq	32,9	13,4	1,6
 Turkiya	28,2	48,3	1,4
 Belarus	22,6	20,3	1,1
 Gruziya	17,9	15,9	0,9
 Eron	14,3	18,0	0,7
 BAA	13,2	9,7	0,6
 Ukraina	12,3	10,7	0,6
 Ozarbayjon	11,7	21,9	0,6
 Latviya	11,3	5,8	0,6
 Boshqa davlatlar	47,8	59,7	2,3

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 40,0% ini), bu esa Qirg'iz Respublikasi eksport hajmiga nisbatan 5,4 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha 2 867,4 mln AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,6 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 6,7 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (43,3%), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (39,2%) asosiy ulushni egallagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari, % da.




2 867,4 (2023 y.: 3 074,8)

Jami



1 237,3 (1 248,8)

Ip kalava



1 124,5 (1 238,7)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



292,1 (316,5)

Trikotaj mato



145,9 (172,8)

Gazlamalar



42,6 (61,1)


Paypoq mahsulotlari

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 7 204,4 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 26,7 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,7 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (48,8 %), transport (35,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,6 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (3,5 %)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (0,9 %), moliyaviy xizmatlar (0,9 %) qurilish xizmatlari (0,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 38 985,8 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,8% ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,6%), sanoat tovarlari (15,5%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,0%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr)



9,5%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,6%

2. Ichimliklar va tamaki



3,1%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



10,1%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



1,0%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



12,0%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



15,5%

7. Sanoat tovarlari



34,6%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,8%

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,1%

10. Boshqa tovarlar



9,6%

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 337,0 mln AQSH dollariga kamaydi va 35 237,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 3 748,0 mln AQSH dollariga yetdi.

**Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	38 659,1	38 985,8	125,6	100,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 495,7	3 695,9	103,0	105,7	9,0	9,5
Ichimliklar va tamaki	191,6	251,3	137,6	131,2	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 125,3	1 195,7	87,7	106,3	2,9	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 633,6	3 953,1	146,7	150,1	6,8	10,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	425,4	373,2	106,1	87,7	1,1	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 864,5	4 688,0	111,3	96,4	12,6	12,0
Sanoat tovarlari	6 322,8	6 054,9	110,0	95,8	16,4	15,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	14 935,2	13 488,3	154,0	90,3	38,6	34,6
Turli xil tayyor buyumlar	1 489,8	1 482,5	111,9	99,5	3,9	3,8
Boshqa tovarlar	90,9	55,0	144,5	60,5	0,2	0,1
Xizmatlar	3 084,3	3 748,0	121,1	121,5	8,0	9,6

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-dekabr)

 XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 695,9	105,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	918,9	81,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	621,4	111,3
Go'sht va go'sht mahsulotlari	509,1	146,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	427,1	110,8
Sabzavotlar va mevalar	383,8	110,2
Hayvonlar uchun ozuqalar	277,2	123,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	230,5	109,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	165,6	100,2
Tirik hayvonlar	119,4	122,6
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	42,7	130,4
Ichimliklar va tamaki	251,3	131,2
Ichimliklar	164,7	126,5
Tamaki va tamaki mahsulotlari	86,6	141,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 195,7	106,3
Probka va yog'och-taxtalar	448,3	109,8
Metall rudalari va metall parchalari	376,0	107,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	83,9	100,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	76,8	129,9
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	67,7	92,9
Qog'oz massasi va makulatura	55,6	110,2
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	50,8	77,3
Tabiiy kauchuk	36,0	102,3
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	0,5	154,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 953,1	150,1
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 971,3	122,2
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 679,7	241,7
Ko'mir, koks va briketlar	180,2	88,2
Elektr toki	121,9	100,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	373,2	87,7
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	314,8	88,7
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	57,1	83,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 688,0	96,4
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 735,9	108,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	792,6	89,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	638,3	103,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	506,6	101,4
Organik kimyo moddalari	289,1	90,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	280,3	91,0
Noorganik kimyo moddalari	279,5	80,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	105,1	96,6
O'g'itlar	60,7	


XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	6 054,9	95,8
Cho'yan va po'lat	2 667,0	104,4
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	814,7	86,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	582,1	86,2
Rezina buyumlari	457,9	84,3
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	409,6	85,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	398,3	104,3
Rangli metallar	371,4	109,1
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	352,0	86,8
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,0	99,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	13 488,3	90,3
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	3 334,8	74,3
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	1 276,8	72,6
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	1 315,9	89,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2 558,5	90,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2 008,2	95,1
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 991,0	105,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1 098,3	116,9
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	1 039,2	119,3
Boshqa transport uskunalari	716,6	69,1
<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>	528,0	56,2
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	474,3	102,6
Metallarni qayta ishlash mashinalari	267,3	92,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	485,1	101,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	443,6	90,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	170,6	87,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	155,3	96,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	135,5	161,9
Poyabzal	42,6	118,5
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	25,4	100,3
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	24,3	136,8

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar- dekabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi 172 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmdagi o‘rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	11339,1	10 431,8	176,4	92,0	1	1
Rossiya	6 660,6	7 947,3	106,9	119,3	2	2
Qozog‘iston	3 068,5	2 825,5	94,6	92,1	3	3
Koreya Respublikasi	2 313,5	1 960,8	100,6	84,8	4	4
Turkiya	1 897,7	1 768,0	109,2	93,2	5	5
Germaniya	985,5	1 116,5	92,0	113,3	6	6
Turkmaniston	924,2	1 020,0	126,3	110,4	7	7
Hindiston	649,1	853,6	99,1	131,5	9	8
AQSH	512,0	564,3	138,9	110,2	12	9
Belarus	525,8	550,8	127,7	104,7	11	10
Litva	481,9	430,3	120,3	89,3	13	11
Braziliya	652,3	426,2	117,9	65,3	8	12
BAA	423,2	400,1	107,0	94,5	15	13
Italiya	429,0	393,4	130,1	91,7	14	14
Chexiya	297,7	380,2	191,4	127,7	20	15
Fransiya	595,0	336,2	2,2 b.	56,5	10	16
Qirg‘iz Respublikasi	333,8	333,1	118,9	99,8	16	17
Eron	322,8	333,1	109,0	103,2	17	18
Yaponiya	219,5	308,2	100,2	140,4	24	19
Polsha	315,2	285,6	147,6	90,6	19	20



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-dekabr


2023-yil yanvar-dekabr

Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 50,8 % bilan 19 810,5 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,4 % bilan 146,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollarida)



2024- yilning yanvar-dekabr oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3 748,0 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 9,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 21,5 % ga ko'paydi.


Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa safarlar (turizm xizmatlari) (50,9 %), transport xizmatlari (19,2 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,2 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (7,3 %)ga tegishli bo'ldi.

Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 13,3 % ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,8 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (3,1 %), sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (2,9 %) va boshqalar tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 6 054,9 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2% ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 15,5% ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-dekabr)

2 132,1 mln AQSH doll.
Ulushi – 35,2 %



Rossiya

2 021,9 mln AQSH
doll. *Ulushi – 33,4%*



XXR

732,9 mln AQSH doll.
Ulushi – 12,1 %



Qozog'iston

293,6 mln AQSH doll.
Ulushi – 4,8 %



Turkiya

152,6 mln AQSH
doll. *Ulushi – 2,5 %*



Koreya
Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (2 667,0 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (814,7 mln AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (582,1 mln AQSH dollari), rezina buyumlari (457,9 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.